Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320081

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

MOLIYA BOZORI TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI

BOBOMURODOVA RUXSHONA AHMAD QIZI
ruxshonabobomurodova70gmail.com Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Raqamli iqtisodiyot va AT fakulteti Statistika yo'nalishi talabasi
ZOKIROVA MUNISA JAMOLIDDIN QIZI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi
munisahusniddinova@gmail.com

Moliya bozori har qanday mamlakatning umumiy bozorini tarkibiy, ammo,asosiy va alohida qismidir.Moliya bozorining asosi real tovarlar bozori hisoblanadi.Mazkur maqolada moliya b ozorining paydo bo'lishi,xalqaro va milliy bozorining shakllanishi,ayniqsa O'zbekistonda bu tizim rivojlanishining asosiy bosqichlari yoritiladi .Maqolada mazkur islohatlarning rivojlanish tarixi va hozirgi holati haqida fikr yurutiladi.

Kalit so'zlar: *Moliya bozori, qimmatli qogo'zlar, moloyaviy insturumentlar, aksiyadorlar, savdo tizimi.*

КОНЦЕПЦИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ЭКОНОМИКИ

АННОТАЦИЯ

Финансовый рынок является структурной, а также фундаментальной и отдельной частью общего рынка любой страны. Основой финансового рынка является рынок реальных товаров. В данной статье рассматривается возникновение финансового рынка, формирование международного и национального рынка, а также основные этапы развития этой системы в Узбекистане в частности. В статье анализируется история развития этих реформ и их текущее состояние.

Ключевые слова: *финансовый рынок, ценные бумаги, финансовые инструменты, акционеры, торговая система.*

THE CONCEPT OF THE FINANCIAL MARKET AND ITS SIGNIFICANCE IN THE ECONOMY

ABSTRACT

The financial market is a structural, but also a fundamental and separate part of the general market of any country. The basis of the financial market is the real goods market. This article discusses the emergence of the financial market, the formation of the international and national market, and the main stages of the development of this system in Uzbekistan in particular. The article discusses the history of the development of these reforms and their current status.

Keywords: *Financial market, securities, financial instruments, shareholders, trading system.*

Published: 05.06.2026

Cite this article: Bobomurodova Ruxshona Ahmad qizi, Zokirova Munisa Jamoliddin qizi (2026). Moliya bozori tushunchasi va uning iqtisodiyotdagi ahamiyati. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320081

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

KIRISH

Moliya bozori vujudga kelishi insoniyatga bog‘liq hisoblanadi. Jamiyatda insonlarning pul bilan bog‘liq bo‘lgan munosabati moliya bozori vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Bunga asosiy sabab insonlarning moliya sohasida tajribasini boyitishi va qiziqishi sabab bo‘ldi.Moloiya bozorining rivojlanishi paralel ravishda jahon iqtisodiy munosabatlari va xalqaro moliya munosabatlari va xalqaro pul-kredit tizimlarining rivojlanishi bilan amalga oshdi. XX asrning iqtisodiy taraqqiyoti shuni to‘liq tasdiqladiki, faqat bozor iqtisodiyotigina xalq xo‘jalik samaradorlik ko‘rsatkichlarining eng yuqori darajasini taminlaydi. Bozor mehanizmining rivojlanishi asosan tovar va pul munosabatlari qanchalik to‘liq qamrab olinganligiga bog‘liq .

Jahon valyuta bozorini yaralishi moliya bozori shakllantirishning birinchi bosqichini tashkil etishda obyektiv zarurat paydo bo‘ldi. Jahon valyuta bozorini rivojlanishi xalqaro valyuta fondining 1960-yildan 1976-yilgacha valyuta bozorini rivojlantirish davri hosoblanadi.

Ushbu mavzuni o‘rganish natijasida moliya bozori turlari, ularning tarixi bilan tanishib chiqishga, moliya bozorining bitimlarini bajarish muddati mezonlarini o‘rganishga yordam be**ra**di.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Moliya bozorlari to‘risidagi nazariyalar iqtisodiy o‘sish va barqarorlikni qamrab oladi. Ilmiy maqolalar va qo‘llanmalar orqali moliya bozorining paydo boi’lishi,rivojlanishi,bozor mehanizmi samaradorligi ,moliya bozori turlari ko‘rib chiqiladi.Shu bilan birga qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilarining o‘zarp bog‘liqligi haqida ham tanishib chiqamiz. M.P.Eshov, A.U.Burxonov, X.X.Xudoyqulovlar qalimiga mansub “Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar “ kitobida moliya bozorining vujudga kelishi, rivojlanishi,qimmatli qog‘ozlar,moliya bozorining tuzulishi kabi mavzular yoritib berilgan.Bulardan shuni tushinishimiz mumkinki moliya bozori har qanday mamlakatning asosiy manbayi yani asosiy qismi ekanligini bilishimiz mumkin.

B.K. Tuxliyev, A.T.Agzamov, B.A. Raxmatullayevlarning “Moliya va soliqlar” kitobidan zamonaviy moliya bozori haqida bilib olishimiz mumkin. SH.SH Shoha’zamiy, K.Ismoilov, Sh.Q.Fozilchayev, J.I.Karimqulovlarning “Moliya bozori” kitobidan moliya bozorining ahamiyati iqtisodiyotdagi rolini namoyon qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavjud qo‘llanmalarni puxta o‘rganish, qimmatli qog‘ozlar bilan tanishish, moliya bozori bilan bog‘liq nazariy malumotlarni va ilmiy maqolalarda aks etgan so‘ngi malumotlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Moliya bozorlari ortiqcha mablag‘ga ega bo‘lganlar yani investorlar uchun foyda keltiradigan va shu foydani qo‘shimcha pulga muhtoj bo‘lganlar masalan qarz oluvchilar uchun mavjud qiladigan qimmatli qog‘ozlar mahsulotlarini yaratadi**.** Moliya bozori turlari:fond bozori, Birjadan tashqari bozorlar, Obligatsiya bozorlari,pul bozorlari,Tovar bozorlari vas hu kabi.

Fond bozori eng mashhur moliyaviy bozorlar hisoblanadi.Bu bozorlar qimmatli qog‘ozlar bozori ham deb yurutiladi. Kompaniyalar tomonidan kapitalni jalb qilish va investorlar tomonidan daromadlarni qidirish uchun foydalaniladi.

Moliya bozori muayyan munosabatlar tizimi hisoblanib ,mintaqalar va institutlar o‘rtasida raqobatbardoshlik asosida resurslarni to‘plash va qayta taqsimlash mehanizmi hisoblanadi.

Xalqaro va milliy moliya bozorining shakllanish bosqichlari[1]

Yil	*1-bosqich*
1860-yillar	*Tashqi savdoni rivojlantirish. Xalqaro valuta bozorining paydo bo’lishi*
yil	*2-bosqich*
1950-yillar	*Milliy kridit bozori operatsiyalarini integratsiyalashuvi.*
1960-yillar	*Xalqaro kridit bozorining shakllanishi.*
Yil	*3-bosqich*
1970-yillar	*Uzoq muddatli kapital uchun xalqaro bozorni shakllantirish va xalqaro investitsiya bozorini yaratish. Milliy fond bozorlarini tartibga solish.Xalqaro fond bozori shakllanishi.*
1980-yillar	*Transmilliy banklar va kompaniyalarning tez sur’atlari bilan rivojlanishi.Xalqaro investitsiyalar va fond bozorlarini yanada rivojlanishi.Xalqaro sug’urta bozoridagi birinchi tizimli operatsiyalar rivojlanishi. Xalqaro kredit bozori faoliyatining rivojlanishi.*
Yil	*4-bosqich*
1990-yillar	*Xalqaro va milliy moliya bozorlarining fond bozori segmentining tez sur’atlar bilan rivojllanishi. Xalqaro va milliy moliya bozorida derivativ bozorlarini shakllanishi.*
2000-yillar	*Xalqaro va milliy moliya bozorida derivtiv bozorlarini tez sur’atlarda rivojlanishi*


IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti


Ushbu malumotlardan milliy moloiya bozorining qay tariqa rivojlanib boshlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu ma’lumotlardan shuni bilishimiz mumkinki xalqaro va milliy bozorlar 4 bosqich orqali rivojlangan. 1980-yillarda sug‘urta , fond bozorlari yana rivojlangan

Moliya bozorining zamonaviy manoda ingilizcgha “finanacial market”so‘zidan olingan bo‘lib , moliya bozori – bu qimmatli qog‘ozlar va ablikatsiyalar kabi qimmatli qog‘ozlarni sotib olish yoki sotish mumkin bo‘lgan bozor hisoblanadi[2]. Ushbu termin birinchi bo‘lib 1963-yilda taniqli iqtisodchi Jeyms Tobin tomonidan qo‘llanilgan [3]. Biroq o‘sha paytda moliya bozori pul bozori va kapital bozori bilan bog‘liq bo‘lmagan va ushbu termin keng tarqalmagan. 1973-yilda “the encylopedia americana “ ensikilopediyasida ham “finanacial market " so‘zi qayd etilmadi ,ammo 1976-yilda Britaniyaning “the new encylopedia Britannica “ensiklopediyasida “financial market so‘zi kiritilgan.

Malumki qisqa muddat ichida rivojlanib borayotgan moliya bozori orqali moliyaviy resurslardan foydalanish hyisobiga erishdi. Biroq qisqa muddatli vaqtda iqtisodiy o‘sish ishlab chiqarish quvvatlarini investitsiyalar hajmini kengaytirish yo‘li bilan modernizasiyashuvi oshirilishini talab qiladi . Makroiqtisodiy barqarorlik sharoita investitsiyalarga bo‘lgan talab esa moliya institutlari yordamida ichki va tashqi jamg‘armalar hisobiga qoplanadi .Bundan shuni tushunishimiz mumkinki ,moliya bozori moliyaviy resurslarni iqtisodiyotda to‘g‘ri taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyasini amalga oshiradi va iqtisodiyot holatini ifodalovchi “barometr” ro‘lini bajaradi .

Iqtisodiyotda moliyaviy oqimlar inflyatsiyasi va foiz stafkasiga bog‘liq holda moliya bozori orqali qayta taqsimlanadi.





Rasmda ko‘rishimiz mumkin moliya tizmi institutsional tarkibining ortiqcha moliyaviy resurslarga ega bo‘lgan sektordan ehtiyoj mavjud bo‘lgan sektorga harakatlanish kanalidagi ahamiyatiga ko‘ra 3 asosiy modeli ajratishini ko‘rishimiz mumkin .Bu insistitutsional tarkibning miloyaviy resurslarini harakatlanish kanalidagi ro‘li bevosita moliya bozorlari bilan aloqasi yaxshi ekanini ko‘rishimiz mumkin. [4] Moliyaviy instrumentlar o‘z bozorida moliyaviy resurslar jamg‘armachilardan (investorlardan) istemolchilarga tomon va aksincha, yo‘nalishda harakat qilishini ta’minlovchi vositalar yani shunga yordam beruvchilar hisoblanadi .Moliyaviy instrumentlar - moliya bozorida operatsiyalarni amalga oshiradigan valyuta qiymatiga ega bo‘lgan muomaladagi moliyaviy hujjatlar hisoblanadi.

Qimmatli qog‘ozlar moliyaviy instrumentlarning boshqa turlaridan faqrli eng hajmli va alohida bozoriga ega bo‘lgan guruhini tashkil etganligi bian ularning mazmuni maxsus ravishda ko‘rib chiqiladi. Takidlash joizki qimmatli qog‘ozlar moliyaviy bozorning taynch narsalaridan biri hisoblanadi .

Qimmatli qog‘ozlar iqtisodiyotda o‘z o‘rniga ega hisoblanadi.

Emitentlar- qimmatli qog‘ozlarni chiqarish yo‘li bilan zarur moliyaviy resurslarni jalb qiluvchi moliya bozori ishtirokchisi hisoblanadi .Moliya bozorida emitentlar qimmatli qog‘ozlarni sotuvchilar hisoblanadi .Emitentlar davlat va homiyat organlari va yuridik shaxslar ko‘rinishida moliya bozorida ishtirok etadilar.

R. Levin shuni aytadiki moliya bozorlari institutlar va mamlakat iqtisodiyotidagi tranzaksion xarajatlarini minimallashtirishda juda katta ahamiyat kasb etishini takidlagan. Shu fikrga asoslangan holda moliya bozorlarining shakllanish modeli makromasshtabda iqtisodiy agentlarning biznes etikasiga ham tasir qiladi. Bozor-bu iqtisodiyotda biror bir shahsning maqsadi yoki u talab qilgan va manfaatlari sari yetaklovchi im kpniyatlari doirasida samara darajasida obektive sodir bo‘luvchi bozor tovarlari bo‘yicha iqtisodiy huquqiy munosabatlari muhiti hisoblanib,unda taraflarning talab va takliflari asosida shakllangan narxlarda qondiriladi. Insoniyat yer yuzida paydo bo‘lgan vaqtlarda tarixga nazar tashlasak insonlar o‘rtasida mablag‘larni natural Tovar sifatida maqsadli va manfaatli tarzda almashunuv jarayonidan bozor vujudga kelgan .Hozirgi kunga kelib bozor insonlar hayotida ajralmas bo‘lagi bo‘lib bormoqda .insonlar bozorlardan hohlagan vaqt hohlagan narsasini topishlari ularni harid qilishlari mumkin. Bozor iqtisodiyoti Tovar-pul munosabatlari bilan bog‘liq hisoblanadi. Bozorning oldi-sotti qiladigan obyektlari moddiy jihatdan qaraganda iste’mol tovarlari va xizmatlari bozori ,ishlab chiqarishi vositasi bozori ,shou-biznes bo‘lish mumkin va uni quydagi chizmada ko‘rish mumkin.

Eng soda tarzda aytiladigan bo‘lsa moliyaviy bozorda moliyaviy aktivlar sotiladi va sotib olinadi. O‘z navbatida qarz majburiyatlari aksiyalar va xos ila qimmatli qog‘ozlar moliyaviy aktivlarning xos turlari bo‘lib hisoblanadi.

Zamonaviy pul bozorlari uchun global integratsiya va likvidlik o‘ziga hos harakterga ega .aktivning likvidlik darajasi uning pulga konveratsiya qilinishi jarayonining oddiyligi,xarajatlari va tezligiga bog‘liq holda aniqlanadi.

Mehnat bozori -ish kuchi oldi sotti qilish munosabatlarini bildiradi .Ish kuchi insonni mehnat qilish natijasida tovarga aylanadi.Potensial mehnat qobilyati bozoridan o‘tib ,real amalda ishlayotgan mehnat natijasiga aylanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliya bozorini paydo bo‘lishi inson jamiyatda pul bo‘lishi bilan bog‘liq hisoblanadi.Moliya bozorining rivojlanish tarixi juda ham qiziq hisoblanadi.XX asrning iqtisodiy taraqqiyoti shuni tasdiqladiki, faqat bozor iqtisodiyotigina xalq xo‘jaligi samaradorlik ko‘rsatgichlarining eng yuqori darajasini taminlaydi.Biz shuni tushunishimiz mumkinki moliya bozorining bir necha vazifalari bor:ishlab chiqarish uchun zarur kapitallarni to‘laydi,qimmatli qog‘ozlarni tez sotish yoki tez sotib olishga yordam beradi, sug‘urta, derivativlar va diversifikatsiya yo‘li bilan investorlar faoliyatini yaxshilaydi, bozor narxlari iqtisodiyot holati haqida signal beradi.

Zamonaviy moliyaviy bozorning eng umumiy ko‘rinishi quydagi tarkibiy qisimlar birligi sifatida tasavvur qilish mumkin .

Bugungi kunga kelib moliya bozoriga dunyo olimlari tomonidan bir qator fikrlar keltirilgan. Mahalliy iqtisodchi olimlardan Sh.Sh.Shoha’zamiy ta’rifiga ko‘ra, moliya bozori – bu monetizatsiyalashgan real investitsion bazisga ekvivalent moliyaviy instrumentlar bilan bog‘liq tashkillashgan, iqtisodiy-huquqiy mexanizm bilan ta’minlangan munosabatlarni maqsadli amalga oshiruvchi, iqtisodiyot subyektlar uchun zaruriy bozor sharoitlarini yaratib beruvchi majmua sifatida namoyon bo‘luvchi tizim. Ushbu tizim mexanizmi iqtisodiyotning barcha subyektlari tomonidan ularni har birining alohida manfaatli maqsadlari doirasida harakatga keltiriladi.

Xorij olimalaridan V.E. Chernova ta’rifiga ko‘ra, moliya bozori – doimiy harakatda bo‘lgan barcha pul resurslarining umumiy miqdori bo‘lib, ya’ni iqtisodiyotning turli subyektlari tomonidan ushbu

Kelajakda O‘zbekiston moliya bozori yanada takomillashtirish uchun moliya bozorini rivojlantirishni davom ettirish zarur. Demografik va iqtisodiy o‘zgarishlarni hisobga olgan holda, O‘zbekiston barcha fuqoralar uchun ishonchli va zamonaviy moliya bozorini rivojlantirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M.P.Eshov,A.U.Burxonov,X.X.Xudoyqulovlar qalimiga mansub “Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar
2. B.K. Tuxliyev,A.T.Agzamov ,B.A. Raxmatullayevlarning “Moliya va soliqlar”
3. SH.SH Shoha’zamiy ,K.Ismoilov ,Sh.Q.Fozilchayev,J.I.Karimqulovlarning “Moliya bozori” https://namdu.uz/pdf-viewer/media/Books/pdf/2024/07/25/NamDU-ARM-11449-Moliya_bozori.pdf/#:~:text=https%3A//namdu.uz/media/Books/pdf/2024/07/25/Nam DU-ARM-11449-Moliya_bozori.pdf%3Fraw%3D1
4. SHoha’zamiy SHohmansur SHohnazir o‘g‘li“ Moliya bozori va qimmatli qog‘ozlari” /https://kitob.sies.uz/frontend/web/kitob/kitob_005ff87f8bbb78f.pdf?utm_source=cha tgpt.com
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Qimmatli_qog%CA%BBozlar?utm_source=chatgp t.com#:~:text=Maqola,Fond%20bozori).
6. K.Z.Xomitov. F.T.Muxamedov. “Moliya bozori va birja ishi” https://unilibrary.uz/literature/196253